



**MAXSUS PEDAGOGIKA RIVOJIGA -TARIXDAGI
ISLOXOTLAR VA DAVLAT SIYOSATINING TA'SIRI**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti namangan filiali

maxsus pedagogika yo'nalishi talabasi

Turg'unboyeva Gulshoda Muxtorjon qiz

muxtarjanovna7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda rivojlanib borayotgan maxsus pedagogika yo'nalishi va tashkilotlarining tashkil etilishi, uning faoliyat strukturasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekistonda bolalar bilan ishlashning yangicha usullari va metodlari, nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit soz'lar: defektologiya, logopediya, maxsus pedagogika, bola tarbiyasi, tajriba.

Tarixdan ma'lumki, 1920-yillarga qadar bizning o'lkamizda defektologiya sohasida aytarli ishlar qilinmagan. Shu bois bu sohada ma'lum yutuqlarga erishgan rus va chet el defektologlarining maxsus ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlaridan foydalandik va foydalashda o'zimmizda ehtiyoj sezdik. Markaziy Osiyoda 1920-yillarda birorta turdagi maxsus muassasalar yo'q edi. Chor Rossiyasi davrida esa nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan xususiy sinflar, xayriya jamiyatlari mavjud bo'lib, 5-6 foizgina nuqsonli bolalar davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiyaga jalb etilgan edi.

1926-yilda O'zbekiston Respublikasi ijroiya qomitasi raisi Oxunbobayev tashabbusi bilan nuqsonli bolalar uchun Toshkentda alohida maktab ochildi. Bu maktabda dastlab 20 ta bola ta'lim oldi. 1931-yilda nuqsonli bolalarni majburiy ta'limga jalb etish haqida qaror qabul qilindi. Maskva va Leningrad pedagogika oliy o'quv yurtida hamda Toshkentdagi 3- pedagogika bilim yurtida o'zbek tiliga maxsus mutaxassislar tayyorlana boshladi.

Defektologiya fakulteti tarixiga nazar solsak, dastlab 4 yillik kunduzgi bo'lim tashkil etilib, 1968-1969-o'quv yilidan kechki bo'lim ham faoliyat ko'rsata boshladi. 1973-yildan boshlab esa kar va zaif eshituvchilar maktablari uchun surdopedagogikalar tayyorlash boshlandi.[1. B. 5.] Hozirda biz o'qiyotgan oliy ta'limlar huddi shu yilli tashkil topgan. Kar va zaif eshituvchilar uchun esa maxsus surdopedagoglar tayyorlana boshladi. Surdopedagog bu eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun maxsus ta'lim shakli bo'lib, imo ishora bilan muloqot qilinadi. Ba'zi bolalarda bu nuqsonni tuzatishda maxsus quloqchinlar taqiladi. Agar karlikni yengil turi bo'lsa bunda quloqchinlar yordam beradi. Lekin aparatni taqqandan keyin ham ular bilan



maxsus ta'lim olib boriladi.

Agar 1960-1961-o'quv yili o'zbekistonda 20 ta maxsus muassasalar bo'lgan bo'lsa, 1973- 1974-o'quv yilida bunday muassasalar 43 taga yetib, tarbiyalanuvchilar soni 9000 mingdan o'tib ketdi. 1991-1992-o'quv yiliga kelib esa bunday muassasalarning 77 tasi ish olib bordi. Ta'lim – tarbiyaga jalb etilgan nuqsonlilarning soni 20000 ga yaqinlashib qodi. Odatda oliy defektologik ma'lumotli mutaxassislar Maskva, Leningrad, Kiyev, Kishinyev va boshqa shaharlarda tayyorlanar edi. Hozir tayanch harakat sistemasi buzulgan bolalar maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham alohida maxsus ta'lim – tarbiya olmoqda. Har yili nuqsonli bolalar ko'paygani sari ularni o'qitadigan mutaxassislarning ham soni ortadi. Muassasalarning ham soni ortadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bola, diqqatini bir joyga jamlay olmaydi, xotirasi ham yaxshi bo'lmaydi, eslab qolishi sust bo'ladi. Bir nuqtaga uzoq vaqt termulib turadi. Tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiynaladi. Fkrini bayon qilolmaydi, gapirishda qiynaladi. Ular bilan defektolog yoki logoped mashg'ulot olib borishi kerak bo'ladi. Bola tez ranjib qoladi, injiq yoki befarq bo'ladi. Uning sabablari esa homladorlik davrida yoki tug'ilish davridagi jarohatlar sabab bo'ladi. Bolaligidagi miyya kasalliklari, doimi kasalliklar sabab bo'ladi. Bunday bolalar bilan shug'illanilganda pedagog ota-onasi bilan doimiy muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit yaratib berishi lozim. Turli o'yinlar, metodlar qo'llashi kerak.

1991-yilga kelib, o'zbekiston xalqi mustaqillikga erishgach, o'zining yangi milliy qomusi asosida barcha sohada bo'lganidek, o'zbek milliy fani va madaniyati “pedagogika tarixi” ga ham yangicha yondashish imkoniyati tug'uldi.

“Pedagogika” atamasi “payne” – “bola” va “aygogeyn”-“yetaklamoq” degan ma'noni bildiruvchi lotincha “daydagogos” so'zlaridan paydo bo'lishi quyidagicha izohlanadi: eramizdan oldingi 1 asrlarda Gretsiyada, quldorlarning bolalarini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi tarbiyachi-qullarni “pedagog” deb atalgan. U bolalarning kamolga yetishiga mas'ul bo'lgan. Quldorning bolasini yetaklab maktabga olib borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni “didaskallar” deb atalgan. Ma'nosi “men o'qitaman” deganidir. Feodalizm jamiyatiga kelib, har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim –tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ularni chex pedagogi “Ya.A.Komenskiy ta'kidlaganidek pedagog deb nomlaganlar va bu so'z hozir ham ta'lim – tarbiya beruvchi o'qituvchilarga nisbatan qo'llaniladi. [2. B. 8.]

LOGOPEDIYA bu –nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, oldini olish haqidagi pedagogik fandir.



Logopediya nutq faoliyat buzilishining sabablar, mexanizmlar alomatlari, oqimlari tarkibini o'rganish. Shuning uchun uni maxsus pedagogik sirasiga qo'shadilar.

“LOGOPEDIYA” termini grekcha loges – so'z, nutq, paydeo “tarbiyalayman, o'qitaman” so'zidan tashkil topgan bo'lib, tarjimada to'g'ri “nutqni tarbiyalash” ma'nosini anglatadi.

Logopediya fan sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. U tilning, nutqining ijtimoiy mohiyati, bolaning nutqi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyatning chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi. Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi. [3. B. 3-6.] Logoped- bu nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarni turli o'yinlar, mashqlar orqali tallafuzini tog'rilaydigan maxsus mutaxassis pedagog.

Logopediya tilshunoslik va psixolingvistika bilan uzviy bog'langan. Nutq tillar birligining turli darajasi va ularning amal qilish qoidalaridan foydalanishni ham nazarda tutadi. Ular har xil buzilishlarda turlicha buzilishi mumkin. Bolaning til normalarini o'zlashtirib olish qonunlari va izchilligini bilish logopedik xulosalarni aniqlashtirishga yordam beradi, logopedik ta'sir etish tizimlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'ladi.

Zamonaviy logopediya tizimli nutq buzilishlarini o'rganish va bartaraf etishda L.S. Vigotskiy, A.R.Luriya, A.Leontevning nutq faoliyatining murakkab tuzilishi, idrok jarayonlari va nutq aytish samarasi haqidagi ta'limotga asoslanuvchi psixolingvistika ma'lumotlari keng qo'llaniladi.

Nutq buzilishlarini o'rganishda nutq hosil bo'lish operatsiyalaridan qaysi biri buzilganligini aniqlash muhimdir. Logopediyada A.S.Vigotskiy, A. Leontev, T.V.Ryabova tomonidan ishlab chiqilgan nutq hosil bo'lish modellaridan foydalaniladi. [3.B.10] Ba'zi bolalar harflarni aytishda qiynaladi. Shuning uchun turli mashqlar qildiriladi va ular quydagilar:

Artikulyatsiya mashqlari:

Statik tayyorgarlik mashqlari

1”Belkurakcha”. Til keng holda chiqarilib, bo'shashtiriladi va pastki lab ustiga qo'yiladi. Bunda til titramasligi kerak. Til shu holda 10-15 daqiqa ushlab turiladi.

2. “Kosacha”. Og'iz keng ochiladi, til keng chiqirilib yuqoriga ko'tariladi. Til yuqori tishlar tomon olib boriladi, lekin ularga tekkizilmaydi. Shu holda til 10-5 daqiqa ushlab turiladi .

3. “Ninacha”. Og'iz ochiladi. Til oldingi tomon ingichka qilib chiqariladi. Shu holda 15 daqiqa ushlab turiladi.

4. “Tepacha”. Og'iz yarim ochiladi. Tilning orqa yonlari yuqori jag' tishlar bilan qisiladi. Tilning uchi pastki oldingi tishlarga tiraladi. Bu holat 15 daqiqa ushlab turiladi.



5. “Naycha”. Til keng holda chiqariladi. Tilning ikki yon tomoni yuqori tomon buklanadi. Hosil qilingan naychadan puflanadi.

Mashq sekin sur’atda 10-15 marta bajariladi.

Shu mashqlarning har biri aniq, sekin 8-10 marta bajariladi.

Dinamik tayyorgarlik mashqlari

1. “soatcha”. Til uzun-ingichka qilib chiqariladi. So’ng shu holda til og’izning o’ng burchagidan chap burchagi tomon harakatga keltiriladi. Mashq 15-20 marta bajariladi.

2. “Ot”. Til tanglay tomonga so’rolib, so’ng qo’yib yuboriladi. Shunda til taqillagan ovoz chiqaradi. Tilni taqillashi sekin va kuchli bo’lishi kerak. Bu mashq 10-15 marta bajariladi.

3. “Qo’ziqorin”. Og’iz ochiladi. Til tanglay tomon so’riladi, shunda til tanlayga qattiq jipslashadi. Bu holda til ushlab turiladi, shu vaqtning o’zida pastki jag’ pastga tomon tushiriladi. Bu mashq 10-15 marta bajariladi. Bu mashqning “ot” mashqidan farqi shuki, til tanlayga jipslashgach, qoyib yuborilmaydi.

4. “Arg’imchoq”. Til –uzun ingichka qilib chiqariladi, so’ng navbatma-navbat goh burun, goh iyak tomon olib boriladi. Bu paytda og’iz berkitilmaydi. Mashq logoped sanog’i bo’yicha 10-15 marta bajariladi.

5. “Mazali murabo”. Til keng holda chiqariladi. So’ng tepa lablar yalanadi va til o’g’iz ichiga olinadi. Bu mashq 10-15 marta bajariladi.

6. “Bo’yoqchi”. Til chiqariladi, og’iz yarim ochiq holda bo’ladi. Til bilan avval yuqori lab, so’ngra pastkilab aylana bo’ylab yalanadi. Bu mashq yo’nalishi almashtirilgan holatda 10 marta bajariladi.

7. “G’altak”. Til uchi oldingi pastki tishlar orasiga tiraladi. Tilning orqa yon tomoni yuqoridagi jag’ tishlar bilan qisiladi. Keng til oldiga chiqariladi, so’ng yana og’iz ichiga olinadi. Bu mashq 15 marta bajariladi. [3.B.92-93] Shu mashqlar orqali bolalar talafuz qilishda qiynaladigan harflarini ayta olishadi. Pedagog bu mashqlarni qiziqarli o’yin sifatida o’tkazishi kerak.

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi Qonuni hamda 1991-1996-yillarda e’lon qilingan 30 dan ziyod Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ta’lim sohasida qator o’zgarishlar amalga oshirildi.

Mahalliy ta’lim tizimi asosiga: maktab (erkaklar uchun boshlang’ich islomiy maktab), va madrasalar (chuqurroq islomiy ta’lim) kirardi.

Bu maktablar arab alifbosi, Qur’oni karim, hadis, fiqh, adabiyot o’rgatilardi. Ta’lim ko’proq diniy harakterga ega bo’lgan. 1919-yil SSSR “Sovotsizlikni tugatish to’g’risida dekret” qabul qilindi. 1917-yilda o’zbeklar orasida savodli aholining ulushi 5% dank am edi.

1939-yilga kelib sovdxonlik darajasi 76 % ga yetadi.



1984-yilda “umumta’lim islohoti” amalga oshirildi- ta’lim tizimi 11 yillikka o’tkazildi.

1989- yil “ Davlat tili to’g’risida Qonun” qabul qilinib, o’zbek tilining o’rni maktab va OTMlarda mustahkamlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- a. P.M.Po’latova. “Maxsus pedagogika”. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 223 B.
2. Qambarov Musoxon. “Pedagogika tarixi”. O’quv qo’llanma. Toshkent, 2022. 288b
3. M.Y.Ayupova.”Logopediya”. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent 2007. 560 B edagog bu mashqlarni qiziqarli o’yin sifatida o’tkazishi kerak.